

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

FRAGMENTATION OF COGNITIVE MODELS AND THE NEED FOR AN INTEGRATIVE APPROACH IN THE CATEGORIZATION OF MEASUREMENT CONCEPTS

Sherzod Khalikulovich Djabbarov

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Jizzakh State Pedagogical University

E-mail: sjabborov1980@gmail.com

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: cognitive linguistics, measurement concept, categorization, prototype, cognitive model, fragmentation, conceptual metaphor, frame semantics, cognitive grammar, integrative approach, English language, Uzbek language.

Received: 01.08.26

Accepted: 03.08.26

Published: 03.08.26

Abstract: The article analyzes the cognitive categorization of measurement concepts in close connection with the problem of theoretical fragmentation in modern cognitive linguistics. The possibilities and limitations of prototype theory, conceptual metaphor theory, frame semantics, cognitive grammar, and the lexical-semantic approach in explaining the meanings of measurement units are comparatively examined. The cognitive status of standard, historical, and anthropometric measurement units in English and Uzbek, their center-periphery relations, and their connections with encyclopedic knowledge, conceptual mapping, and discursive-cultural activation are substantiated. The study proposes an integrative model for examining the semantics of measurement units that combines sensory-perceptual experience, prototypical categorization, frame-based knowledge, conceptual metaphorization, grammatical profiling, and discursive-cultural interpretation.

O‘LCHOV KONSEPTLARINI KATEGORIYALASHDA KOGNITIV MODELLAR FRAGMENTARLIGI VA INTEGRATIV YONDASHUV ZARURATI

Sherzod Xalikulovich Djabbarov

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jizzax davlat pedagogika universiteti

E-mail: sjabborov1980@gmail.com

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: kognitiv lingvistika, oʻlchov konsepti, kategoriyalash, prototip, kognitiv model, fragmentarlik, konseptual metafora, freym semantikasi, kognitiv grammatika, integrativ yondashuv, ingliz tili, oʻzbek tili.

Annotatsiya: Maqolada oʻlchov konseptlarini kognitiv kategoriyalash masalasi zamonaviy kognitiv lingvistikadagi nazariy fragmentarlik muammosi bilan uzviy bogʻliq holda tahlil qilinadi. Prototip nazariyasi, konseptual metafora nazariyasi, freym semantikasi, kognitiv grammatika hamda leksik-semantik yondashuvlarning oʻlchov birliklari maʼnosini izohlashdagi imkoniyatlari va chegaralari qiyosiy koʻrib chiqiladi. Ingliz va oʻzbek tillaridagi standart, tarixiy va antropometrik oʻlchov birliklarining kognitiv maqomi, ularning markaz-periferiya munosabatlari, ensiklopedik bilim, konseptual koʻchish va diskursiv-madaniy faollashuv bilan bogʻliqligi asoslanadi. Tadqiqot natijasida oʻlchov birliklari semantikasini sensor-perseptiv tajriba, prototipik kategoriyalash, freymli bilim, konseptual metaforalash, grammatik profillash va diskursiv-madaniy interpretatsiyani birlashtiruvchi integrativ model asosida oʻrganish taklif etiladi.

**ФРАГМЕНТАРНОСТЬ КОГНИТИВНЫХ МОДЕЛЕЙ И НЕОБХОДИМОСТЬ
ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА К КАТЕГОРИЗАЦИИ КОНЦЕПТОВ
ИЗМЕРЕНИЯ**

Шерзод Халикулович Джаббаров

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Джизакский государственный педагогический университет

E-mail: sjabborov1980@gmail.com

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концепт измерения, категоризация, прототип, когнитивная модель, фрагментарность, концептуальная метафора, фреймовая семантика, когнитивная грамматика, интегративный подход, английский язык, узбекский язык.

Аннотация: В статье анализируется проблема когнитивной категоризации концептов измерения в тесной связи с проблемой теоретической фрагментарности в современной когнитивной лингвистике. В сравнительном аспекте рассматриваются возможности и ограничения теории прототипов, теории концептуальной метафоры, фреймовой семантики, когнитивной грамматики и лексико-семантического подхода в интерпретации значений единиц измерения. Обосновываются когнитивный статус стандартных, исторических и

антропометрических единиц измерения в английском и узбекском языках, их отношения «центр — периферия», а также их связь с энциклопедическими знаниями, концептуальным переносом и дискурсивно-культурной актуализацией. В результате исследования предлагается интегративная модель изучения семантики единиц измерения, объединяющая сенсорно-перцептивный опыт, прототипическую категоризацию, фреймовое знание, концептуальную метафоризацию, грамматическое профилирование и дискурсивно-культурную интерпретацию.

Kirish. Zamonaviy kognitiv lingvistikaning eng muhim vazifalaridan biri inson ongining borliqdagi uzluksiz va rang-barang hodisalarni nisbatan barqaror konseptual kategoriyalar shaklida tartibga solish mexanizmlarini tushuntirishdan iborat. Til bu jarayonda tayyor obyektiv belgilarni shunchaki nomlash vositasi bo‘lib qolmay, balki insonning tajribani tanlash, guruhlash, taqqoslash, umumlashtirish va baholash usullarini namoyon etuvchi kognitiv tizim sifatida ishtirok etadi [4]. Shu sababli kategoriya, konsept, freym, domen, prototip, mental model va konseptual metafora kabi tushunchalar so‘nggi o‘n yilliklarda tilshunoslikning markaziy nazariy kategoriyalariga aylandi. Kognitiv lingvistika doirasida yaratilgan ko‘plab nazariyalar til ma‘nosining turli qirralarini yoritib bergan bo‘lsa-da, ularning ko‘payishi bilan birga muhim metodologik masala - nazariy fragmentarlik muammosi ham keskinlashdi [1; 3].

Nazariy fragmentarlik deganda bir modelning til ma‘nosi shakllanishining muayyan bosqichini chuqur tushuntirishi, biroq boshqa kognitiv bosqichlarni izohlash imkoniyati cheklangan bo‘lishi tushuniladi. Masalan, konseptual metafora nazariyasi abstrakt mazmunning aniq tajriba sohalari orqali tuzilishini samarali tushuntiradi [5], freym semantikasi esa ma‘noni ensiklopedik bilim strukturalari bilan bog‘laydi [2]. Kognitiv grammatika til birliklarining konseptuallashtirish usullari va profil-fon munosabatlarini tahlil qiladi [6], prototip nazariyasi esa kategoriya a‘zolarining teng emasligi, markaz va periferiya mavjudligini ko‘rsatadi [7: 27-48]. Biroq o‘lchov birliklari singari bir vaqtning o‘zida sonli aniqlik, tarixiy xotira, madaniy baho va metaforik kengayishni birlashtiruvchi leksik qatlamni to‘liq tushuntirish uchun bu nazariyalardan birortasi yakka holda yetarli emas.

O‘lchov birliklari mazkur muammoni tadqiq etish uchun ayniqsa qulay materialdir. Bir tomondan, meter/metr, kilogram/kilogramm, second/soniya kabi birliklar ilmiy va metrologik jihatdan barqaror, qat’iy normativ mazmunga ega. Ikkinchi tomondan, foot, yard, mile, qarich,

qadam, quloq, gaz, tanob kabi birliklar nafaqat muayyan miqdorni bildiradi, balki tanaviy tajriba, tarixiy turmush, xo'jalik amaliyoti, milliy madaniyat va diskursiv maqsad bilan bog'liq qo'shimcha konseptual qatlamlarni faollashtiradi. Demak, o'lchov leksikasining semantik tuzilishi obyektiv kattalikni kodlashdan ko'ra murakkabroq bo'lib, uni kategoriyalash, ensiklopedik bilim, metaforik ko'chish, grammatik profillash va madaniy interpretatsiya birligida o'rganish zarur.

Maqolaning maqsadi o'lchov konseptlarini tadqiq qilishda mavjud kognitiv modellar fragmentarligining nazariy mohiyatini ochib berish, turli konsepsiyalarning o'lchov birliklari semantikasini tushuntirishdagi imkoniyat va chegaralarini aniqlash hamda ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov birliklarini izohlash uchun integrativ kognitiv modelning zaruratini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, konseptual tahlil, prototipik kategoriyalash, freymli interpretatsiya va kognitiv-semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

O'lchov konseptlarining prototipik kategoriyalashuvi

Kategoriyalash haqidagi klassik qarashlarda kategoriya zarur va yetarli belgilar majmui asosida shakllanadigan, chegaralari aniq mantiqiy sinf sifatida talqin qilingan. Bunday model formal tasnif va metrologik standartlar uchun ma'lum darajada qulay: masalan, uzunlik birliklari bir domen, massa birliklari boshqa domen doirasida birlashtiriladi. Biroq tabiiy tilning real faoliyati kategoriya a'zolarining har doim ham teng mavqega ega emasligini ko'rsatadi. Ayrim birliklar tez taniladi, faol ishlatiladi va kategoriya uchun odatiy namuna sifatida idrok qilinadi; boshqalari esa tarixiy, hududiy yoki uslubiy cheklangan kontekstlarda faollashadi.

E. Rosch tomonidan ishlab chiqilgan prototip nazariyasi aynan ana shu gradatsiyani izohlash imkonini berdi. Uning tadqiqotlarida kategoriya a'zolari kognitiv jihatdan bir xil darajada markaziy emasligi, ayrimlari "eng yaxshi namuna" sifatida qabul qilinishi, boshqalari esa periferik maqomga ega bo'lishi ko'rsatildi [7: 27-48]. J. R. Taylor ham tabiiy til kategoriyalarida prototip effektlari, chegaralarning nisbiyligi va a'zolikning darajali xususiyatini lingvistik kategoriyalashning muhim belgisi sifatida talqin qiladi [8]. O'lchov birliklariga tatbiq etilganda bu yondashuv kategoriya ichidagi funksional nomutanosiblikni aniq ko'rsatadi.

Zamonaviy o'zbek tilida metr, kilometr, gramm, kilogramm, litr va soniya kabi metrik birliklar ta'lim, ilm-fan, qonunchilik, savdo va kundalik kommunikatsiyada muntazam qo'llanishi sababli o'lchov kategoriyasining kognitiv markazida joylashadi. Gaz, tanob, qarich, quloq yoki qadam kabi tarixiy va antropometrik birliklar esa rasmiy metrologik tizimning markaziy unsurlari bo'lmasa-da, badiiy matn, tarixiy diskurs, xalqona nutq va madaniy xotirada faol semantik resurs bo'lib qoladi. Xuddi shunday, ingliz tilida meter va kilogram xalqaro ilmiy standartning markaziy birliklari bo'lsa, mile, yard, foot, inch va pound ayrim milliy hamda kundalik kommunikativ tizimlarda yuqori prototipik maqomni saqlab turadi.

Bu holat o'lchov kategoriyasining markaz-periferiya tuzilishi faqat fizik kattalikning turiga qarab emas, balki qo'llanish chastotasi, institutsional mustahkamlik, ijtimoiy tanishlik, diskurs turi va madaniy ahamiyat kabi omillar bilan shakllanishini ko'rsatadi. Shuning uchun periferik birlikni "kam ahamiyatli" birlik sifatida talqin qilish noto'g'ri. Uning rasmiy chastotasi past bo'lishi mumkin, biroq lingvomadaniy zichligi yuqori bo'lishi ehtimol. Masalan, qarich yoki quloq aniq metrologik standartdan chetda tursa-da, ular inson tanasining makonni idrok qilishdagi tarixiy rolini til xotirasida saqlaydi. Prototip nazariyasi shu nuqtada o'lchov tizimining statik emas, balki kognitiv va diskursiv jihatdan dinamik ekanini ko'rsatadi.

Kognitiv modellar fragmentarligi: nazariy muammoning mohiyati

Kognitiv lingvistikada nazariy modellarning ko'pligi fan taraqqiyotining tabiiy natijasidir. Evans va Green kognitiv lingvistikani yagona monolit nazariya emas, balki umumiy konseptual tamoyillarni baham ko'ruvchi, lekin ma'no va grammatikaning turli tomonlarini turlicha modellashtiruvchi yondashuvlar majmui sifatida tavsiflaydi [1]. Geeraerts ham leksik semantika rivojida turli nazariy paradigmalarning bir-birini to'ldiruvchi xususiyatiga e'tibor qaratadi [3]. Shu nuqtai nazardan fragmentarlik nazariyalarning mutlaq kamchiligi emas; muammo ularning qamrov chegaralarini hisobga olmasdan, bitta modelni murakkab semantik hodisaga universal izoh sifatida qo'llashda yuzaga keladi.

O'lchov leksikasi aynan ko'p bosqichli konseptualashtirish tufayli bunday biryoqlama talqinga qarshilik ko'rsatadi. Masalan, metr yoki kilogrammning lug'aviy ma'nosini aniqlash oson: ular standart kattalikni bildiradi. Biroq "bir qarich yer", "bir qadam yaqin", "miles apart", "inch closer" singari konstruksiyalar miqdoriy birlikning denotativ qiymatini saqlagan holda baholash, yaqinlik, uzoqlik, intensivlik yoki obrazli konseptualizatsiya vazifasini bajarishi mumkin. Bunday holatda faqat lug'aviy definitsiya yetarli emas; birlikning qaysi bilim strukturasini faollashtirayotgani, qaysi domenlardan ma'no ko'chirilayotgani, grammatik konstruksiya nimani profillayotgani va diskursda qanday pragmatik vazifa yuzaga kelayotgani ham izohlanishi lozim.

Shu sababli o'lchov birliklari semantikasini kamida olti o'zaro bog'liq sathda ko'rish mumkin: birinchisi - sensor-perseptiv tajriba; ikkinchisi - kategoriyalash va prototipik tuzilish; uchinchisi - ensiklopedik yoki freymli bilim; to'rtinchisi - konseptual metaforalash va domenlararo ko'chish; beshinchisi - grammatik profillash; oltinchisi - diskursiv va madaniy interpretatsiya. Mavjud nazariyalar bu sathlarning ayrimlarini juda chuqur yoritadi, biroq ularning barcha bosqichlarini bir butun jarayon sifatida kam hollarda qamrab oladi. Ana shu holat nazariy fragmentarlikning o'lchov birliklarini tadqiq etishdagi aniq ko'rinishidir.

Konseptual metafora nazariyasining imkoniyatlari va chegaralari

Lakoff va Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi abstrakt tushunchalar ko'pincha insonning bevosita jismoniy tajribasiga tayangan aniqroq konseptual domenlar orqali anglanishini asoslaydi [5]. O'lchov birliklari bu jarayonda tayyor miqdoriy shkalalarni taqdim etishi sababli metaforik konseptualizatsiya uchun qulay manba domeniga aylanadi. Masofa, balandlik, og'irlik, chuqurlik va hajm kabi o'lchov parametrlari hissiy holat, ijtimoiy farq, intellektual daraja, vaqt davomiyligi yoki baholash intensivligini obrazli tuzishda qo'llanishi mumkin. Masalan, "yaqin" va "uzoq" kategoriyalari faqat fizik masofani emas, insonlararo munosabat va maqsadga erishish darajasini ham ifodalashi mumkin.

Mazkur nazariya o'lchov birliklarining denotativ sohadan baholovchi va abstrakt sohalarga ko'chishini yaxshi tushuntiradi. Ammo aynan bir o'lchov birligi metaforik konstruksiyada nima sababdan muayyan madaniy tasavvurni faollashtirishi masalasi kengroq ensiklopedik bilim tahlilini talab qiladi. Masalan, qadam birligi harakat, yo'l, yaqinlik, inson imkoniyati yoki jarayon bosqichi bilan assotsiatsiyalanishi mumkin. Konseptual metafora domenlararo bog'lanishni ko'rsatadi, lekin mazkur birlik atrofida tashkil topgan tarixiy, ijtimoiy va madaniy bilimning ichki strukturasi alohida freymli tavsifni talab qiladi. Demak, konseptual metafora nazariyasi o'lchov birliklaridagi semantik kengayish mexanizmini izohlashda kuchli, ammo ensiklopedik tarkibni mustaqil ravishda to'liq modellashtirmaydi.

Freym semantikasi: o'lchov birligi ortidagi bilim strukturasi

C. Fillmore freym semantikasi doirasida so'z ma'nosini alohida lug'aviy birlik sifatida emas, muayyan vaziyat, tajriba yoki bilim strukturasi element sifatida tushuntiradi [2: 111-137]. O'lchov birliklari uchun bunday yondashuv ayniqsa muhim, chunki "o'lchash"ning o'zi ko'plab rollar va munosabatlarni qamrab oladigan freymdir: o'lchanayotgan obyekt, o'lchov parametri, etalon, sonli qiymat, birlik, o'lchash vositasi, maqsad va kommunikativ vaziyat. Meter yoki metr so'zining ma'nosi shu umumiy bilim strukturasi tashqarida to'liq tushunilmaydi.

Tarixiy birliklarda freymning madaniy tarkibi yanada sezilarli bo'ladi. Tanob yer maydoni, an'anaviy dehqonchilik va mulk o'lchash amaliyoti bilan; qarich esa inson qo'li, tana o'lchami va taxminiy masofa bilan bog'liq bilimlarni faollashtiradi. Ingliz tilidagi foot ham tanaviy tajriba va tarixiy standartlashuvning o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Freym semantikasi ushbu bilim qatlamlarini tartibli ko'rsatadi, biroq birlikning konkret nutqiy vaziyatda boshqa domenni metaforik faollashtirish mexanizmini o'z-o'zidan to'liq tushuntirmaydi. Shu sabab freym tahlili konseptual metafora bilan birgalikda qo'llanganda o'lchov leksikasining semantik salohiyatini ancha to'liqroq yoritadi.

Kognitiv grammatika va o'lchov ma'nosining profillanishi

R. Langacker kognitiv grammatikasida grammatik struktura insonning voqelikni qanday konseptuallashtirishi bilan bevosita bog'lanadi [6]. Bir hodisa turli konstruksiyalar orqali turlicha

profilanishi mumkin; bunda diqqat markazi, fon, trajektor, orientir va konseptual ko‘rish usuli ma’no farqlanishini yuzaga keltiradi. O‘lchov birliklari qatnashgan birikmalarda ham son, birlik, o‘lchanayotgan obyekt va sifatning sintaktik joylashuvi miqdoriy mazmunni turlicha konseptual profilga ega qiladi.

Masalan, “uch metr mato”, “uch metrlik mato” va “mato uch metr” tipidagi konstruksiyalarda obyektiv miqdor bir xil bo‘lishi mumkin, biroq kommunikativ fokus va grammatik profil bir xil emas. Birinchi holatda miqdoriy birikma predmetni aniqlaydi, ikkinchisida o‘lchov belgisi derivatsion tarzda predmetning xususiyatiga aylantiriladi, uchinchi holatda esa o‘lcham predikativ belgi sifatida markazlashtiriladi. Ingliz tilida ham “a three-meter wall”, “the wall is three meters high” kabi qurilmalar miqdorni turlicha profillaydi. Kognitiv grammatika bunday strukturaviy farqlarni muvaffaqiyatli izohlaydi, biroq tarixiy birliklarning milliy-madaniy semantikasi yoki metaforik kengayishi uning asosiy tadqiqot maqsadi emas. Demak, grammatik profillash ham integrativ modelning alohida, lekin yetarli bo‘lmagan bo‘g‘inidir.

Ingliz va o‘zbek tillarida madaniy-spetsifik konseptuallashtirish

O‘lchov konseptlarini qiyosiy o‘rganishda universal kognitiv mexanizmlar bilan bir qatorda milliy-madaniy tajribaning ham ta’siri hisobga olinishi kerak. Inson tanasini o‘lchov etaloni sifatida qo‘llash, masofani harakat bilan baholash yoki miqdorni aniq va noaniq shkalalarda ifodalash kabi mexanizmlar ko‘plab tillarda uchraydi. Biroq konkret birliklarning saqlanishi, faol qo‘llanishi va madaniy assotsiatsiyalari har bir til hamjamiyatining tarixiy taraqqiyotiga bog‘liq.

Ingliz tilida mile, yard, foot, inch, pound kabi birliklar ayrim milliy variantlarda kundalik amaliyot bilan mustahkam bog‘lanib qolgan. Shu sabab ular faqat tarixiy birlik sifatida emas, faol kognitiv etalon sifatida ham xizmat qilishi mumkin. O‘zbek tilida esa zamonaviy rasmiy va ta’limiy kommunikatsiyada metrik tizim ustun mavqega ega bo‘lib, metr, kilometr, kilogramm, litr kabi birliklar kategoriya markazida turadi. Gaz, tanob, qarich, quloch, qadam kabi birliklar ko‘proq tarixiy, etnografik, badiiy va og‘zaki kontekstlarda faollashadi. Bu farq prototipik markazning universal emas, balki ijtimoiy amaliyot orqali shakllanishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, an’anaviy birliklar o‘zbek tilining madaniy xotirasida katta konseptual salohiyatga ega. Qarich yoki quloch inson tanasi bilan makon o‘rtasidagi bevosita bog‘lanishni, qadam esa makonning harakat orqali segmentlanishini aks ettiradi. Bu birliklarning aniq standart qiymatdan ko‘ra tajribaviy va tasviriy mazmuni kuchli bo‘lishi mumkin. Ingliz tilidagi foot yoki inch singari birliklarda ham antropometrik manba tarixiy jihatdan kuzatiladi. Demak, ikki til materialini qiyoslash o‘lchov kategoriyasida bir tomondan tanaviy tajribaning universalligini, ikkinchi tomondan standartlashtirish va madaniy xotiraning turlicha rivojlanganini ko‘rsatadi.

O‘lchov birliklari uchun integrativ kognitiv model

Yuqoridagi tahlil o'lchov birliklari semantikasini birgina nazariya doirasida to'liq tushuntirish qiyinligini ko'rsatadi. Shu sabab mazkur tadqiqotda mavjud konsepsiyalarni raqobatchi emas, balki turli kognitiv bosqichlarni izohlovchi o'zaro to'ldiruvchi modellar sifatida ko'rish taklif etiladi. Integrativ yondashuv nazariy eklektizmni anglatmaydi; aksincha, har bir nazariyaning aniq funksional vazifasini belgilab, ularni yagona tahlil ketma-ketligiga joylashtirishni nazarda tutadi.

Taklif qilinayotgan modelning birinchi bosqichi sensor-perseptiv asosdir. Bu bosqichda inson kattaliklar o'rtasidagi farqni sezadi va uzun-qisqa, katta-kichik, og'ir-yengil, yaqin-uzoq kabi oppozitsiyalarni shakllantiradi. Ikkinchi bosqich prototipik kategoriyalash bo'lib, unda takrorlanuvchi tajriba asosida muayyan birliklar kategoriya markaziga, boshqalari periferiyaga joylashadi [7: 27-48; 8]. Uchinchi bosqich freymli tashkil topishdir: o'lchov birligi o'lchanayotgan obyekt, etalon, parametr, son, vosita va amaliy vaziyat bilan bog'langan ensiklopedik bilim tarmog'ida talqin qilinadi [2: 111-137].

To'rtinchi bosqich konseptual ko'chish va metaforalashdir. O'lchov shkalasi fizik sohadagi aniq munosabatni saqlagan holda emotsional, ijtimoiy, vaqt yoki baholovchi domenlarga tatbiq etilishi mumkin [5]. Beshinchi bosqich grammatik profillash bo'lib, bir xil miqdor turli sintaktik va derivatsion konstruksiyalarda turlicha konseptual fokus bilan ifodalanadi [6]. Oltinchi bosqich diskursiv-madaniy interpretatsiyadir: konkret birlikning qaysi tarixiy, milliy yoki ijtimoiy assotsiatsiyalarni faollashtirishi kommunikativ vaziyat bilan belgilanadi. Shu bosqichda metrik va an'anaviy birliklar o'rtasidagi tanlov faqat sonli aniqlik emas, balki uslubiy va madaniy ma'no tanloviga ham aylanadi.

Mazkur integrativ model o'lchov birligining ma'nosini "bir nuqtada" emas, jarayon sifatida ko'rish imkonini beradi. Masalan, qarich avvalo tana tajribasiga tayangan sensor etalon sifatida shakllanadi; keyinchalik uzunlik kategoriyasining muayyan a'zosi sifatida prototipik tarmoqda o'rin oladi; antropometrik va maishiy bilim freymini faollashtiradi; kontekstga qarab "juda oz masofa" yoki "yaqinlik" kabi baholovchi mazmunni metaforik tarzda kuchaytirishi mumkin; sintaktik konstruksiyada aniqllovchi yoki predikativ xususiyat sifatida profillanadi; nihoyat, badiiy yoki tarixiy diskursda milliy koloritni yuzaga keltiradi. Birgina nazariya mazkur ketma-ketlikning barcha bo'g'inlarini bir xil chuqurlikda qamrab ololmaydi.

Shuningdek, integrativ yondashuv qiyosiy-tipologik tahlil uchun ham metodologik afzallikka ega. Ingliz va o'zbek tillaridagi birliklarni faqat matematik ekvivalentlik asosida qiyoslash ularning real kommunikativ maqomini yashirishi mumkin. Masalan, two miles va ikki kilometr ifodalaridagi sonli munosabat konversiya orqali moslashtiriladi, biroq birlik tanlovining milliy diskursdagi odatiyligi, stilistik betarafligi yoki madaniy rangdorligi bir xil bo'lmasligi

mumkin. Integrativ tahlil esa ekvivalentlikning miqdoriy, kognitiv, grammatik va lingvomadaniy sathlarini alohida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Nazariy fragmentarlikni bartaraf etishning metodologik tamoyillari

Kognitiv modellarni integratsiyalashda uchta metodologik tamoyilga rioya qilish maqsadga muvofiq. Birinchidan, nazariyalar ierarxik emas, funksional taqsimot asosida qo‘llanishi lozim. Prototip nazariyasi kategoriya tuzilishini, freym semantikasi bilimning tarkibiy tashkilini, konseptual metafora domenlararo ko‘chishni, kognitiv grammatika esa strukturaviy profillashni tushuntiradi. Ularning vazifalari bir-birini inkor etmaydi. Ikkinchidan, tahlil til tizimidan diskursga qarab harakatlanishi kerak: birlikning lug‘aviy va kategorial maqomi aniqlangandan so‘ng uning konkret kontekstdagi ma‘no faollashuvi tekshiriladi. Uchinchidan, qiyosiy tahlilda universal kognitiv mexanizm bilan tilga xos madaniy natijani qat‘iy farqlash zarur.

Mazkur tamoyillar o‘lchov birliklari bo‘yicha tadqiqotlarda nazariy ortiqchalikning oldini oladi. Integratsiya barcha nazariyalarni bir matnda sanab o‘tish emas, balki har bir nazariy tushunchani ma‘lum tahliliy savolga javob berish uchun qo‘llashdir. Masalan, “qaysi birlik kategoriya uchun tipik?” savoliga prototip nazariyasi; “birlik qanday bilim tizimini faollashtiradi?” savoliga freym semantikasi; “qanday abstrakt ma‘no hosil bo‘ladi?” savoliga konseptual metafora; “qaysi element kommunikativ jihatdan markazlashtiriladi?” savoliga kognitiv grammatika javob beradi. Shu tarzda nazariy fragmentarlik kamchilik sifatida emas, funksional integratsiya uchun zamin sifatida qayta talqin qilinadi.

Xulosa. O‘lchov birliklarini kognitiv-semantik nuqtai nazardan o‘rganish ularning oddiy miqdoriy nom sifatidagi tavsifidan ancha keng yondashuvni talab qiladi. O‘lchov konsepti sensor tajriba, kategoriyalash, ensiklopedik bilim, konseptual ko‘chish, grammatik profillash va diskursiv-madaniy interpretatsiyaning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Shu sabab zamonaviy kognitiv lingvistikada mavjud bo‘lgan alohida nazariy modellar o‘lchov leksikasining ayrim sathlarini chuqur izohlasa-da, yakka holda uning barcha semantik va konseptual qatlamlarini to‘liq qamrab olmaydi.

Prototip nazariyasi o‘lchov kategoriyasining markaz-periferiya tuzilishini ochadi; konseptual metafora nazariyasi miqdoriy shkalalarning abstrakt domenlarga ko‘chishini tushuntiradi; freym semantikasi birlik ortidagi ensiklopedik bilim va vaziyat strukturasini ko‘rsatadi; kognitiv grammatika esa o‘lchov ma‘nosining turli grammatik konstruksiyalarda qanday profillanishini izohlaydi. Bu nazariyalarning har biri zarur, ammo alohida holda yetarli emas. Shuning uchun o‘lchov birliklarini tadqiq etishda integrativ kognitiv yondashuv metodologik zarurat sifatida namoyon bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek tillari materialining qiyosiy tahlili ham mazkur xulosani tasdiqlaydi. Har ikkala tilda tanaviy tajriba va miqdorni kategoriyalashning umumiy kognitiv asoslari mavjud

bo'lsa-da, konkret birliklarning prototipik maqomi, institutsional mustahkamligi va lingvomadaniy semantikasi turlicha shakllangan. Shu bois kelgusidagi tadqiqotlarda o'lchov birliklarini faqat metrologik ekvivalentlik bo'yicha emas, balki kognitiv tipiklik, freymli bilim, metaforik salohiyat, grammatik realizatsiya va diskursiv funksiyalar birligida o'rganish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv o'lchov konseptlarining umumiy kognitiv tabiatini ham, ingliz va o'zbek tillarida yuzaga keladigan madaniy-spetsifik farqlarni ham izchil va yaxlit tarzda ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. - Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.
2. Fillmore C. J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. - Seoul: Hanshin Publishing, 1982. - P. 111-137.
3. Geeraerts D. Theories of Lexical Semantics. - Oxford: Oxford University Press, 2010.
4. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. - Chicago: University of Chicago Press, 1987. - 632 p.
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. - Chicago: University of Chicago Press, 1980.
6. Langacker R. W. Foundations of Cognitive Grammar. Volume I: Theoretical Prerequisites. - Stanford: Stanford University Press, 1987.
7. Rosch E. Principles of Categorization // Rosch E., Lloyd B. B. (eds.). Cognition and Categorization. - Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1978. - P. 27-48.
8. Taylor J. R. Linguistic Categorization. 3rd ed. - Oxford: Oxford University Press, 2003. - 328 p.